


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMYX XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

"FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University" jurnalni bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririylashriyot bo'limga tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
AXMADALIYEV Y.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	ZUOGANG PENG (Xitoy)	Janubiy-g'arbiy universitet, b.f.d., prof
ZAYNOBIDDINOV S (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	PANASYUK M (Rossiya)	Qozon federal universiteti, g.f.d, profr
A'ZAMOV A (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)	Anqara Hoji Bayram Veli universiteti fil. f.d., prof
SAGDULLAYEV Sh (O'zbekiston)	O'zRFA t.f.d., prof	SIROJIDDINOV Sh (O'zbekiston)	Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU akademigi, fil.f.d., prof
TURAYEV A. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, k-b,f,d., prof	ABADI, TOTOK WAHYU (Indonesiya)	Universitas Muhammadiyah Sidoarjo, Siyosat va xalqaro huquq.
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)	O'zRFA k.f.d., prof	SCOTT LEVI (AQSH)	Ohio State University, PhD, prof
ABDULLAEVA Z (Qirg'iziston)	OshDU k.f.n., dots	AZIYA ZHUMABAYEVA (Qozog'iston)	Abay nomidagi Qozog' milliy pedagogika universiteti
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, b.f.d., prof	SANIYA NURGALIYEVA (Turkiya)	Ataturk University
G'ULOMOV S. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, i.f.d., prof	SALTANAT ABILDINA (Qozog'iston)	E. A. Buketov nomidagi Qaragandi davlat universiteti
JUMABEKOVA B (Qozog'iston)	b.f.d., prof		

Tahririylashriyot kengashi

IJTIMOY FANLAR BO'YICHA

XONKELDIYEVA G.	FarDU, i.f.d., prof.	SIDDIQOV I.	FarDU, f.f.d., prof
XAKIMOV N.	FarDU, f.f.d., dots.	YULDASHEV S.	FarDU, f.f.d. (DSc)
ISOMIDDINOV M.	FarDU, t.f.d., prof	G'ANIYEV B.	FarDU, f.f.d., (DSc) dots.
USMONOV B.	FarDU, t.f.d., prof	QOSIMOV A.	FarDU, f.f.d., prof.
MAXMUDOV O.	FarDU, t.f.d., dots	QAMBAROV A.A	FarDU, f.f.d., prof
QAHHOROVA M.	Xalqaro islom akademiyasi, f.f.d., prof.	ALIMOVA N.O	FarDU, t.f.b.f.d., dots
QAMBAROV A.	FarDU, f.f.d.prof.	XASANOV M.X	FarDU, t.f.b.f.d., prof
MAMATOV M.	FarDU, f.f.d., prof.	SHAMSIYEVA M.X	FarDU, t.f.b.f.d., dots
DADABAYEVA	FarDU, yu.f.f.d., dots		

Bo'lim boshlog'i: Zokirov I.I., b.f.d.,prof.

Texnik muharrirlar: Sheraliyeva J.
Mirkarimova Sh.

Musahhihlar: Mahmudov F.
O'rınboyev I.

Tahririylashriyot manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti: Jouranal.fdu.uz

Sh.Abdug'affor

XX asr boshlarida Farg'ona viloyatining Rossiya imperiyasi bilan iqtisodiy aloqalari 99

T.Egamberdiyeva, Sh.Oxunjonova

Ta'llimda gender yondashuvga oid xalqaro tajribalar tarixidan 105

R.A.Arslonzoda R.M.Qodirova

XX asrning 20-30 yillarida O'zbekiston SSR maktablarida tarix fanining

o'qitilishi masalalari 111

J.Sultonov

Chingizxonning tangut davlatini egallash yo'lidagi o'ziga xos diplomatiyasi 116

E.K.Abdulxayev

Qataq'on siyosati qurboni bo'lgan jadidlarning reabilitatsiya qilinishi 122

Q.V.Yo'Ichiyev

Urush mavzusining badiiy ifodasi 126

X.P.Jurayev, N.O.Maqsumov

Mustaqillik yillarida Farg'ona viloyatida sport infrastrukturasining rivojlanishi 131

O.B.Abdunosirova

Temuriylar davrida yuqumli kasalliklar va ularning ijtimoiy-madaniy hayotga ta'siri 134

D.J.Nizomitdinov

Amir Temurga asir tushgan nemis ritsari 138

A.R.Usmonov

Dehqonchilik an'analari bilan bog'liq nomoddiy madaniyat (Farg'ona vodiysi misolida) 141

F.I.Qayumova

XX asr 20–30-yillaridagi iqtisodiy siyosat xususida ayrim mulohazalar

(Farg'ona vodiysi misolida) 147

B.A.Usmonov

1470 – 1507-yillarda xurosonda Temuriylar davlatining siyosiy inqirozi va tugatilishi 153

B.A.Usmonov, R.X.Akbarov

Yangi qarashlarga boy tadqiqot 157



УО'К: 93(571.5)+330.322

**XX ASR 20–30-YILLARIDAGI IQTISODIY SIYOSAT XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR
(Farg'ona vodiysi misolida)**

НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ ОБ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКЕ 1920-х - 1930-х ГОДОВ (на примере Ферганской долины)

SOME REFLECTIONS ON THE ECONOMIC POLICY OF THE 1920s AND 1930s (Based on the Example of the Ferghana Valley)

Qayumova Feruza Inomjon qizi

Farg'ona davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasasi o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada sovet hokimiyatining, dastlabki favqulodda iqtisodiy chora-tadbirlar sifatida, "Harbiy kommunizm" siyosati, "Yangi iqtisodiy siyosat"i va ularning oqibatlari yuzasidan fikr yuritiladi. Bolsheviklarning ma'muriy buyruqbozlik yo'li bilan ish yuritishga qaratilgan iqtisodiy siyosati, jumladan, "Oziq-ovqat razvyorstka"si, xususiy mulkchilikni yo'q qilishga, rejali iqtisodiyot, miqdor ketidan quvishga qaratilgan siyosati borasida so'z boradi.

Аннотация

В данной статье рассматривается политика советской власти "Военный коммунизм," "Новая экономическая политика" и их последствия в качестве первых чрезвычайных экономических мер. Речь идет об экономической политике большевиков, направленной на административно-командное управление, включая "Продовольственную разверстку," ликвидацию частной собственности, плановую экономику и погоню за количеством.

Abstract

This article examines the Soviet government's policies of "Military Communism," "New Economic Policy," and their consequences as the first emergency economic measures. This refers to the Bolsheviks' economic policy aimed at administrative-command management, including "Food Deployment," the elimination of private property, a planned economy, and the pursuit of quantity.

Kalit so'zlar: Bolsheviklar hukumati, xususiy mulkchilik, kredit kooperatsiyasi, "Harbiy kommunizm", oziq-ovqat razvyorstkasi, НЭП, Turksoyuz, savdo shirkatlari, artellar, jamoalashtirish.

Ключевые слова: большевистский режим, частная собственность, кредитная кооперация, «военный коммунизм», НЭП, Турксоюз, торговые компании, артели, черный рынок, коллективизация.

Key words: Bolshevik regime, private ownership, credit cooperation, "War Communism", НЭП, Turksoyuz, trading companies, artels, black market, collectivization.

KIRISH

Jahonda yuz berayotgan globallashuv sharoitida iqtisodiyot har bir inson ijtimoiy hayotiga shiddat bilan kirib bormoqda. Hamda kishilar iqtisodiyot va uning imkoniyatlari, tadbirkorlik to'g'risida imkonli boricha ko'proq bilishga intilmoqdalar. Bugungi kunda iqtisodiyotning davlat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatiga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayni masala ko'plab davlatlar siyosatida ustuvor yo'naliishlardan biri sifatida e'tirof etilishi sohani keng tadqiq etish ehtiyojini vujudga keltirmoqda. Shu boisdan, iqtisodiyotning davlat rivojidagi va kishilar hayotidagi orniga doir ilmiy bilimlarni yanada chuqur o'rganish, tarixiy davrlar, hudud, mintaqqa va muammolar kesimida tadqiq etish muhim o'rinn tutmoqda. Zero, bugungi va ertangi kun muammolarini bartaraf etishda o'tgan davr tajribasini o'rganish, hozirgi va kelajak to'g'risida to'g'ri xulosalar chiqarishga yaxshi imkoniyat beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqotda ushbu masala, ya'ni sovet hokimiyatining iqtisodiy siyosati borasida ilmiylik, xolislik, tarixiylik va tizimlilik kabi yondashuvlar asosida tahlil etilgan. Mazkur mavzu M.Цыпкина [1], M.Vaxobov [3], Sh.Saidov [4], N. Uzakov, Б.Канатов [5] singari tarixchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Bolsheviklarning "Harbiy kommunizm", "Yangi iqtisodiy siyosat"i, xususiy mulkchilikni yo'qotishga, xalq xo'jaligiga total rahbarlik qilishga, iqtisodiy yechimlarning yo'qligi, ma'muriy buyruqbozlik yo'li bilan ish yuritishga qaratilgan iqtisodiy siyosati izohlangan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Yaqin tariximizga nazar tashlaydigan bo'lsak Turkiston o'lkasi, jumladan Farg'ona vodiysining xalq xo'jaligi Birinchi jahon urushi va Oktabr to'ntarishi natijasida yuzaga kelgan mislsiz vayrongarchilik, qahatchilik holatini boshdan kechirayotgan edi. Qishloq xo'jaligining tanazzuli 1917-yilgi hosilsizlik tufayli yanada keskinlashadi. Inqiroz sanoatni ham chetlab o'tmadni, sanoat ishlab chiqarishining kamayib ketishi va Rossiyadan sanoat, oziq-ovqat mahsulotlarini olib kelish tobora qisqarib borishi natijasida qimmatchilik tobora ortib bordi.

Bolshevistik rejimning xususiy mulkchilikni yo'qotishga, xalq xo'jaligiga total rahbarlikning, shu bilan birga iqtisodiy usullar bilan emas, balki ma'muriy buyruqbozlik yo'li bilan ish yuritishga qaratilgan iqtisodiy siyosati ocharchilik va vayrongarchilikning yanada chuqurlashtirdi.

Sovet hukumati 1918-yilda favqulodda iqtisodiy chora-tadbirlar o'tkazdiki, bu "harbiy kommunizm siyosati" nomi bilan tarixga kirdi. "Harbiy kommunizm" siyosatining natijalari tezda o'zini ko'rsatdi. Bu siyosatning joriy qilinishi o'lkadagi asrlar davomida shakllangan iqtisod tizimini barbob bo'lishiga olib keldi. Bu narsa sovet hukumatini iqtisodiy siyosatni qaytadan ko'rib chiqishga majbur qildi.

Yangi iqtisodiy siyosatni amalga oshirish jarayonida chuqur ziddiyatlar namoyon bo'ldi. Bu Farg'ona vodiysida yaqqol ko'zga tashlandi. Bu davrda Farg'ona vodiysi qishloq xo'jaligida ayniqsa kooperatsiyalar sezilarli rol o'ynadi. O'n minglab alohida dehqon xo'jaliklari bilan sanoat o'rtaida mustahkam iqtisodiy aloqalar o'rnatilishi dehqonlarning moddiy axvolini yaxshilashga, korxonalarini zarur xom ashyo bilan ta'minlashga yordam ko'rsatishi lozim edi. Dastlabki, yillarda Turkiston, shuningdek Farg'ona vodiysida kredit kooperatsiyasi ancha kengroq ommalashdi [1, 15 - b]. Qishloqlarda qarz berish o'sha vaqtida o'ta zaif sohalardan edi. Shuning uchun ham bu yerda sudxo'rlik va savdo kapitali asosiy mavgeni egalladi.

Farg'ona vodiysida kooperatsiyalarning boshqa turlari ham ommalashgan edi. Masalan, 1923-yilda bu yerda 877 ta turli xil kooperatsiya bo'lib, ular 155,5 ming kishini ish bilan ta'minlardi [1, 16 - b].

Yangi iqtisodiy siyosatga o'tilishi munosabati bilan qishloq xo'jalik xom ashvosini tijorat asosida tayyorlash va sotish bilan shug'ullanadigan organlar tashkil etila boshladi. Bunday savdo-iqtisodiy tuzilmalar orasida Turkiston matlubot jamiyatlari ittifoqi (Turksoyuz), Turkiston paxtachilik ittifoqi va boshqalar bor edi. Ular o'z imkoniyatlari doirasida bozor mexanizmlaridan foydalanib mahsulot ayrboshlashni amalga oshirdi. Masalan, Turkiston XKSXning 1921-yil 19 oktabrdagi qaroriga muvofiq Turksoyuzga respublika ichida ham, Rossiyaning boshqa mintaqalari bilan ham natural va aralash ayrboshlash, mahsulotlarni pul bilan oldi-sotdi qilish kabi shakllaridan istagan bittasidan foydalanib mahsulot ayrboshlashni amalga oshirish huquqi berildi.

Turksoyuz 1922-yilning noyabr-dekabr oylarida Nijegorod yarmarkasidan 100 ming metr xom surp, 560 yashik idish-tovoq, 2500 pud temir, 569 dona samovar, 195 yashik deraza oynasi, 60 pud alyumin idish sotib olgan.

Dastlabki yillarda Turkistondagi tijorat ishlari davlatning "Sentrokoj", "Sentropoperst", "Glavxlopkom", "Turtekstil", "Turkxlopkom" kabi nufuzli tashkilotlari olib borgan bo'lsa, keyinchalik xom ashyo tayyorlash, uni tashib ketish va sotish bir tizimga solindi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari, sotib olinadigan sanoat mahsulotlariga nisbatan qadrsiz edi. Marx-navoning bunday "nomuvofiqligi" dehqonlarni boshi berk ko'achaga olib kirib, ularning azaliy qadriyatlarini oyoqosti qilardi. Masalan, 1919-yilda 1 pud paxtani sotishdan kelgan pulga 36 arshin chit yoki 88 funt temir olish mumkin bo'lgan bo'lsa, 1923-yilda bu pulga 10 arshingina chit yohud 39 funt temir sotib olish mumkin edi [2, 262 - b].

Markazdan yuboriladigan sanoat mahsulotlarining ko'pchiligi sifatsiz edi. Natijada qishloq mehnatkashlarining davlat uchun mahsulot tayyorlash lozim bo'lgan "matlubot kooperatsiya" sida yetishtirilgan qimmatbaho qishloq xo'jalik xomashyosining oziq-ovqat solig'ini to'lagandan keyin o'zlarida qolgan qismi evaziga hech narsaga arzimaydigan mahsulotlar berilardi. Qishloq ahli bu tovarlarni olishga majbur edilar, chunki oldindan shartnomalar imzolagan edi. Bunday yo'l tutilishi oqibatida 1922-yil iyul oyida bo'lib o'tgan Turkiston MIK plenumi qatnashchilarining bahosiga ko'ra, "dehqon matlubot jamiyatiga mahsulotlarni tortib oladigan, uning mehnatidan foydalaniladigan tashkilot sifatida qarardi" [3, 360 - b].

Tovar-pul munosabatlarining jonlanishi, savdo va ayriboshlashning klassik shakllari "harbiy kommunizm"ga xos cheklashlardan ozod etdi. Erkin savdo 1921-yildan e'tiboran rivojlana boshlagan va tezda iqtisodiyotning ta'sirchan mexanizmiga aylanib qolgan edi. Uning sog'lomlashuviga 1922-

TARIX

1924-yillarda o'tkazilgan pul isloxit ma'lum darajada yordam berdi. Davlat pul muomalasida tartibsizliklarga chek qo'ydi, muomalaga valyuta – "chervon" chiqarildi. Natijada ichki bozorda, aholining harid quvvati oshib bordi. XX asr 20-yillari boshida Farg'ona vodiysida vujudga kelgan iqtisodiy jonlanish butun sanoat, hunarmandchilik, qishloq xo'jaligini qamrab oldi va tovar pul munosabatlarda o'z ifodasini topdi. 1924-yildayoq mahsulot aylanmasining umumiyligi xajmi yarim million so'mlikni tashkil etdi. Chakana savdo korxonalarining soni bir mingdan oshib ketdi. 1924/25-xo'jalik yilda ulgurji savdo sohasida davlat va kooperatsiyaning ulushi 56 foizni, umumiyligi mahsulot aylanmasining 44 foizini tashkil etdi [3, 365 - b].

Xususiy kapital asosida tashkil etilgan vositachilik va savdo shirkatlari, artellar qattiq mafkuraviy nazorat ostida bo'ldi. Davlatning xususiy kapital bilan, ijarchilar, turli tuman mol-mulk egalari va xo'jaliklar bilan munosabatlari soliqlar orqali yo'lga qo'yildi. Lekin bunda sinfiy yondoshuv ustivorlik qilardi. Ko'pincha xususiy savdo egalariga juda katta miqdorda soliqlar solinar tadbirkorlarning erkin faoliyati esa butunlay cheklab qo'yilgan edi. 1922-yilda hali mahalliy savdo-sotiqlari xajmining 90 foizi xususiy savdogarlar qo'lida edi. Hukumatdagi milliy rahbarlar mustaqil ichki va tashqi siyosat yurgizishga harakat qildilar. Rossiyadagi sovet hukumati Turkistondagi hokimiyatga bu borada katta qarshiliklar ko'rsatdi. Sovet hokimiyati nafaqat siyosiy jihatdan, balki iqtisodiy sohada ham jiddiy tazyiqlar o'tkazib, sun'iy to'siqlar vujudga keltirib turdi. Shunga qaramasdan vodiyya G'arb va Sharq mamlakatlari bilan mustaqil savdo-sotiqlari aloqalarini o'rnatishga harakat qilindi. 1922-yil 29-iyulda RSFSR bilan tuzilgan yangi iqtisodiy shartnomada vodiyya Turkiston hukumati chet davlatlar bilan savdo-sotiqlari olib borish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Moskvada Turkiston ASSR savdo vakolatxonasining vakillari eksport va import masalalarini hal qilishda faol ish olib bordilar.

Rossiya shirkatlari sotib olinadigan paxta narxini pasaytirib yuborishi bilan mahalliy hukumat vakillari paxtaning xarid narxini ko'tarish va shu asosda dehqonlar daromadini oshirish maqsadida paxta savdosida erkin savdoni, ya'ni yangi iqtisodiy siyosat asosida savdo yuritishni talab qildilar [3, 368 - b].

Turkiston ASSR, Finlyandiya, Shvetsiya, Germaniya, Turkiya, Afg'oniston, Eron kabi davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni olib borishga harakat qildi. Bu aloqalarda Farg'ona vodiysining ham munosib hissasi borligini ta'kidlash lozim. Lekin 1922-yil 29-iyunda RSFSR bilan tuzilgan shartnomanining 6 muddasida chet davlatlar bilan faqat Rossiya hukumatining ruxsati bilangina savdo aloqalarini o'rnatishi mumkinligi alohida qayd qilingan edi [4, 29 - 31 - b]. Shu tariqa o'lkada tashqi savdo aloqalarini yo'lga qo'yish imkonini qo'lga kirtsada, bu aloqalar bevosita Rossiya tomonidan nazorat qilinadigan bo'ldi.

Yangi iqtisodiy siyosat tufayli ro'y bergan o'zgarishlarning muhim natijalaridan biri aholini oziq-ovqat mahsulotlar bilan ta'minlashdagi sezilarli burilish bo'ldi. Xo'jalikni erkin yuritish, tovar-pul munosabatlarining tiklanishi tadbirkorlikni bir oz bo'lsa-da avj oldirdi. Shahar axolisining ijtimoiy ahvolida ham siljishlar ko'zga tashlandi. Lekin, qishloq aholisining xarid quvvati ancha past edi.

Savdo-sotiqlari rivojlantirish bilan bog'liq jarayonlar bir teksda kechmagan. Xususiy mulk egasi, xatto foydasi muqarrar bo'lgan sohalardan ham siqib chiqarilgan. Savdo-sotiqlarida xususiy sektorga qarshi kurash Yangi iqtisodiy siyosat yillarida asosan davlat va kooperativ savdoni mustahkamlash yo'li bilan olib borildi. Bu davrda davlat savdosining asosiy targ'ibotchisi bo'lib shaharda "O'zbek savdo", qishloqda esa "O'zbekbirlashuv" maydonga chiqdi [5, 46 - b].

Yangi iqtisodiy siyosat shunga imkon berdi, XX asr 20-yillarining oxirida oziq-ovqat va sanoat mollarining turi, olib kelish miqdori oshib bordi. Natijada aholining harid qilish qobiliyatini, turmush darajasida qandaydir ijobiy o'zgarishlar bo'lganligini sezish qiyin emas. Bunga yana bir dalil sifatida Yangi iqtisodiy siyosatning dastlabki natijalari Turkiston ASSR MTKning II sessiyasi (1922-yil fevral)da Turkiston iqtisodiy Kengashining (Turk EKOSO)iqtisodiy siyosat va yagona xo'jalik rejasi to'g'risidagi ma'ruzalarida Turkistonning iqtisodiy ahvoli, xo'jalik hayotida ayrim siljishlarga erishilganligi haqida ma'lumot berilgan [6, 101 - b].

XX asrning 30-yillariga kelib esa mintaqadagi murakkab vazifalardan biri iqtisodiyotni sovetcha shaklda qayta shakllantirishda ko'rindi. Butun mamlaktda bo'lgani kabi Farg'ona vodiysida ham oziq-ovqat va sanoat mollarini tanqisligi boshlandi.

Shahar aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlash urush boshlanishi bilanoq "kartochka" bo'yicha amalga oshirila boshladi. Ishchilar va xizmatchilar kuniga faqat 400-500 gr past navli non olardi.

Aholiga go'sht, baliq, yog', yorma, makaron sotishda ham meyorlangan taqsimot joriy qilindi. Lekin u ham ko'pincha kechikib ketardi [5, 48 - b].

Me'yorlangan taqsimot qishloq aholisiga umuman tadbiq etilmagan edi. Qishloq aholisi oziq-ovqat mollarini matlubot kooperatsiyasi do'konlaridan davlatga topshirilgan mahsulotlar miqdoriga qarab belgilangan normalar bo'yicha sotib olardi. Kishi boshiga sanoat mollari ajratishning cheklangan yillik normasi mavjud edi: 6 m ip-gazlama, 3 m jun gazlama, 1 juft poyabzal. Aholining poyabzalga bo'lgan talabi qondirilmaganligi sababli qishloq odamlari asosan yalangoyoq yurishardi yoki eng oddiy "qo'l bola poyabzal" tikib olishardi [4, 338 - b].

Shaharlarning moddiy sharoitini ta'minlash maqsadida ishchilar va xizmatchilarga o'z tomorqalarida mahsulotlar yetishtirishga ruxsat etilgan edi. Urush yillarda ishchi va xizmatchilarning ish haqi oshirildi. Biroq pulning qadrsizlanishi shiddat bilan ortib bordi. Qora bozor kuchaydi (soviet davrida bunday bozor chayqov bozori deyilgan) va buning muqarrar oqibati sifatida narxlar keskin oshdi, tovar va mahsulotlar ayirboshlashga o'tildi.

Lekin, shuni ham aytish kerakki, bolsheviklarning o'lkamizda 30-yillarda amalga oshirgan bir qator siyosiy va iqtisodiy islohotlari (*rayonlashtirish, kolxozlashtirish, madaniy inqilob, elektrlashtirish, sanoatlashtirish va h.*) o'zining samarasini bermay qolmadidi. Bu davrda butun mamlakatda bo'lgani kabi Farg'ona vodiysida ham savdoda davlat va hususiy sektorning mavjudligi va o'zaro munosabatda bo'lganligini quyidagi jadvald ko'rshish mumkin.

Savdo muassasalarining soni haqida ma'lumot (1930-yil) [7. 300-b].

Okrug va rayonlar	Savdo muassasalari soni								Umumi savdoning qiyosiy o'Ichovi	
	Umumi savdo muassasalari				Shu jumladan qishloqlarda					
	Hukumatniki	Kooperatsiyani	Hususiy	Jami	Hukumatniki	Kooperatsiyani	Hususiy	Jami		
Farg'ona okrugi										
Beshariq	2	7	135	144	2	7	135	144	6,3	6,3
Qo'qon	112	107	1475	1694	9	38	100	147	12,9	32
Qudash	0	3	51	54	0	3	51	54	5,6	5,6
Chust-Pop	3	26	174	203	1	26	60	87	14,3	31
Buvayda	0	6	60	66	0	6	60	66	9,1	9,1
Bag'dod	10	64	124	198	10	64	124	198	37,4	37,4
Rishton	0	14	122	136	0	14	122	136	10,3	10,3
Oltiariq	1	18	219	238	1	18	219	238	8	8
Marg'ilon	21	39	806	866	0	18	172	190	6,9	9,5
Farg'ona	21	38	355	414	2	4	46	52	14,3	11,5
Quva	0	10	115	125	0	10	115	125	8	8
Jami okrugda	170	332	3636	4138	25	208	1204	1437	12,1	16,2
Andijon okrugi										
Kosonsoy	2	9	133	144	2	9	133	144	7,6	7,6
Yangiqo'rg'on	4	14	140	158	4	14	140	158	11,4	11,4
Namangan	30	37	1008	1075	8	15	333	356	6,2	6,5
Norin	7	31	158	196	4	31	158	196	19,4	19,4
Izboskan	4	31	171	206	4	31	171	206	17	17
Baliqchi	2	20	26	48	2	20	26	48	45,8	45,8
Shahrixon	2	4	209	215	2	4	209	215	2,8	2,8
Zelenskiy	9	34	212	255	4	17	113	134	16,9	15,7
Marhamat	3	10	55	68	3	10	55	68	19,1	19,1
Andijon	59	69	1047	1175	5	6	174	185	10,9	5,9

TARIX

Jalol-quduq	2	4	124	130	2	4	124	130	4,6	4,6
Qo'rg'on-tepa	1	4	123	128	1	4	123	128	3,9	3,9
Oyim	2	1	70	73	2	1	70	73	4,1	4,1
Jami okrugda	127	268	3476	3871	43	166	1829	2041	10,2	10,4

1930-yilda quloqlashtirish siyosati batamom tugab, kolxozlashtirish jarayoni hali keskinlashmagan vaqtida butun O'zbekiston SSR, jumladan Farg'ona vodiysida ham savdo sohasida xususiy sektor ancha ustun bo'lgan. Masalan vodiyning yirik va markaziy shaharlari – Qo'qon, Farg'ona, Marg'ilonda xususiy sektorga tegishli savdo muassasalari (*do'kon, ustaxona, hammom, savdo rastalari va h.k.*) soni 10-15 barobarga, vodiyning chekka tumanlarida ham 5-10 barobarga ko'p bo'lgan. Ushbu jadval bu davrda qishloqlardagi savdo muassasalari salmog'ini ko'rsatadi. Xatto Andijon okrugidagi qishloqlarda bunday muassasalar soni ko'p bo'lsa-da, savdo aylanmasidagi farqi 0,2 foiznigina (*Andijon okrugida*) tashkil qilgan.

Farg'ona okrugining Beshariq, Qudash, Chust-Pop, Buvayda, Bag'dod, Rishton, Oltiariq, Quva, Andijon okrugining Kosonsoy, Yangiqo'rg'on, Norin, Marhamat, Qo'rg'on-tepa, Oyim kabi rayonlarida qishloqlardagi savdoning yillik o'sishi okrug savdosining yillik o'sishi bilan bir xil bo'lgan. Buni shunday deb hisoblash mumkin: rayonlardagi savdoning yillik o'sishini okrug savdosining umumiyligi yillik o'sishi bilan bir xil bo'lshining asosiy sababi vodiylar aholisining katta qismi qishloqda yashaganligidir. Lekin shaharlar sonining kamligiga qaramasdan aholisining asosiy qismi savdo va hunarmandchilik sektorida band bo'lganligi bois shaharlarda savdoning umumiyligi salmog'i ancha katta edi.

Tarkibida shaharlar bo'lgan yoki bir nechta shahar tarkibida bo'lgan rayonlarda savdo nisbatan rivojlangan. Lekin bu davrga oid arxiv hujjatlari, o'sha davrga oid ilmiy adabiyotlar va bir qator manbalarda asosan savdo muassasalari soni va ularning umumiyligi salmog'iga oid ma'lumotlar keltirilgan, xolos.

Bu savdo muassasalari ko'p turdag'i mahsulot ishlab chiqarishdan sekin-asta paxta monokulturasiga ixtisoslasha boshlaganini, 30-yillarning oxiriga kelib esa, kolxozlashtirish nihoyasiga yetgach, butun respublika, jumladan Farg'ona vodiysi ham asosan paxta yetishtiradigan mintaqaga aylantirilishi natijasida xususiy sektorda shug'ullanuvchi aholining soni tobora qisqarib borganligini guvoxi bo'lshimiz mumkin. Buni quydagi ma'lumot ham tasdiqlaydi: respublikaning 45 rayonidagi kolxozlardan (*jumladan, Farg'ona vodiysida ham*) 1931-yili 2 648 nafar mulkdorlar "quloq" sifatida haydalgan bo'lsa, 1932-yilga kelib, 3 550 nafar xuddi shunday mulkdorlar haydalgan [8, 54 - b]. Andijon uyezdi shahar ijroqo'mining 1931-yil 17 iyundagi hujjatida birligina Bozorqo'rg'on tumanidan 131 nafar mulkdorlar «boy va quloq» sifatida surgun qilingani qayd etilgan [9, R-86 - 1-49 v]. Kollektivlashtirish (*Jamoalashtirish — qishloq xo'jaligida mulkdorlar tabaqasini tugatish maqsadida sovet hukumatining 1929-1933-yillarda o'tkazgan siyosati*) va boy xo'jaliklarni quloqlashtirish jarayonida ularni siyosiy huquqlardan, jumladan, saylov huquqidan mahrum qilish siyosati ham keng amalga oshirilgan.

XULOSA

1928-1929-yillarda o'tkazilgan saylov davomida Farg'onada 14,4 foiz mulkdorlar, 70,1 foiz savdogarlar, Andijonda 36,8 foiz mulkdorlar, 34 foiz savdogarlar saylash huquqidan mahrum qilingan edi [10, R-86 - 119 v]. Bu raqamlardan ko'rish mumkinki, sovet hukumati qisman mulkka ega bo'lgan yoki qisman savdo faoliyati bilan shug'ullangan shaxslarni ham "sinfiy dushman" sifatida "tugatish" hamda ularga qarshi murosasiz kurash olib borish yo'lini tutgan.

XX asrning 30-yillari O'zbekiston SSRda savdo sohasi 20-yillardagiga qaraganda yeskinroq ravishda davlat qaramog'iga olindi. Sovet hokimiyyati yillarida O'zbekistonning taraqqiyoti rejaliari Ittifoq markazida ishlab chiqarilib, aksariyat hollarda mahalliy sharoit, ijtimoiy ahvol hisobga olinmasdan iqtisodni bir tomonlama, ya'ni o'lkani xom-ashyo bazasi sifatida saqlab qolishga qaratildi. Sanoat, xalq xo'jaligining deyarli barcha tarmoqlari paxtachilikni rivojlantirishga bo'ysundirildi. Bu esa sal vaqtidan so'ng qabul qilingan 1946-yil 2-fevraldag'i O'zbekistonda paxta yakkaxokimligini kuchaytirish uchun asos bo'ldi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Цыпкина М. (1953) Развитие промысловой кооперации Узбекистана. Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Т.

2. Мустабид тузумнинг Ўзбекистоннинг миллий бойликларини талаш сиёсати: Тарих шоҳидлиги ва сабоқлари (1865-1990). – Тошкент. 2001.
3. Вахабов М. (1961) Формирование узбекской социалистической нации. – Ташкент.
4. Сайдов Ш. Хоразм Халқ Совет Республикасининг Финляндия билан савдо алоқалари тарихидан (1920–1924 йй.) // Ўзбекитон тарихи. 2003.
5. Узаков Н., Канатов Б. Потребительская кооперация сегодня. – Ташкент, 1980.
6. Ражабов Қ., Ҳайдаров М. Туркистан тарихи (1917 – 1924 й.). – Б. 101.
7. Районы УзССР в цифрах. – Самарканд, 1930.
8. Шамсутдинов Р., Акбарова М. Шимолий Қозогистон сургунидаги юртдошлар қисмати. – Тошкент: Шарқ, 2009.
9. O'zMA, P.86-fond, 1-ro'yxat, 4037-ish, 1-49-varaqlar.
10. O'zMA, P.86-fond, 1- ro'yxat, 5023-ish, 119-varaq.